# MENEJER FAOLIYATINING FUNKSIONAL VAZIFALARI VA UNING MADANIYATINING AHAMIYATI

**Naimova Nargiza Akbarovna**
*Osiyo xalqaro universiteti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada menejerlar tomonidan qabul qilinadigan qarorlar murakkabligi va javobgarlik ortishi bajariladigan ishlar turli - tumanligi ulardan vaqtni unumli taqsimlanishi va ko'rsatmalarda aks ettirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Zamonaviy menejer, marketing, boshqaruv funksiyasi, ilmiylik tamoyili, boshqarish tamoyili.*

Zamonaviy menejer deganda biz rahbarni yoki ish boshqaruvchini ko'z oldimizga keltiramiz, ya'ni ular maxsus tayyorgarlik ko'rgan boshqarishning sir-asrorlari , qonun-qoidalarini chuqur biluvchi ko'rsatmalardir. Menejerlar yollanma boshqaruvchilar bo'lib aholining alohida ijtimoiy qatlamini tashkil etadi. Kompaniya firma, korxona, bank, moliya muassasalarining ijroiya hokimiyatga ega bo'lgan boshqaruvchi, direktor, rahbar, mudir, ma'muriy boshqaruvchi kabilarning barchasi ham menejerlar deb yuritiladi. Boshqaruv pog'onasiga qarab menejerlar ham uch toifaga bo'linadi: Yuqori pog'onadagi menejerlar, o'rta pog'onadagi menejerlar, quyi pog'onadagi menejerlar. Yuqori pog'onadagi menejerlar firma istiqbolini belgilash uning kelajagi uchun ahamiyatli chora-tadbirlarni ishlab chiqish bilan shug'ullanadi. Bir so'z bilan aytganda firma andozasini ishlab chiqadi va uni amalga oshiradi. O'rta pog'onadagi menejerlar firma faoliyatining ayrim tomonlarini, chunonchi, ishlab chiqarish, tovarlarni sotish, narx belgilash, moliya faoliyati yangi tovarlarni o'zlashtirish texnologiyani qo'llash mehnatni tashkil etish kabilarni boshqarish bilan shug'ullanadi. Quyi pog'onadagi menejerlar quyi bo'g'inda, masalan, sex bo'lim brigada doirasida ishni tashkil etish, kunlik, xaftalik, oylik ish topshiriqlarining bajarilishini boshqarib boradi. Bugungi kunda iqtisodiy aloqalar murakkablashgan sari menejer xizmatiga talab oshadi, o'z ishining ustasifarang bo'lgan maxsus ijtimoiy toifa menejerlar toifasi paydo bo'ladiki, uning alohida ijtimoiy maqomi bor. Ular g'oyat murakkab, o'ta mas'uliyatli ish bilan shug'ullanishi, firmaning hayot-momotiga javobgar bo'lgani uchun yollanib ishlovchilar orasida eng katta xizmat haqi oladilar. Boshqaruv funksiyalarini bajarishda va jamoat ishlab chiqarishda zamonaviy menejer: rahbar – boshqaruvchi, rahbar – diplomat, rahbar - murabbiy, tarbiyachi, rahbar – inson, rahbar - innovator sifatida maydonga chiqadi. Korxonada menejment jarayoni mazmuni uni funksiyalarda ko'rinadi. Menejment funksiyasi deyilganda boshqaruvga doir ma'lum masalalarni yechishga yo'naltirilgan bir turli ishlar yig'indisi tushuniladi. Boshqaruv organlari va ijrochilar ma'suliyatli boshqarish funksiyasini belgilaydi. Bu vazifalar funksional bo'lim to'g'risidagi Nizom va mansabdor boshqaruvchilar uchun ko'rsatmalarda o'z ifodasini topadi. Boshqaruv jarayonining

funksional tahlili har bir funksiya uchun ish hajmi asoslarini tashkil etadi, boshqaruvchilar sonini belgilaydi va boshqaruv tizimini loyihalashtiradi. Boshqaruv organlari asosiy va aniq funksiyalarga bo'linadi. Asosiy funksiya ham ishlab chiqarish jarayonida ham muomala va noishlab chiqarish jarayonida amalga oshadi. Ular quyidagilar: rejalashtirish, tashkil etish, muvofiqlashtirish, nazorat, ragbatlantirish. Rejalashtirish - bu ijodiy loyihalarning istiqbolini, iqtisodiy sistemani belgilash. Rejalashtirish barcha xo'jalik sub'ektlari strategiyasida o'z aksini topadi. Tashkil etish - bu texnik, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqarish sistemalarini tartibga keltirish. Menejmenti tashkil etish, avvalo, eng maqbul tashkiliy tuzilmalar qurish, moddiy, mehnat, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish, boshqarish tizimlari orasidagi munosabatlarni uyushtirish. Muvofiqlashtirish - texnik, iqtisodiy, ijtimoiy masalalarni birga hal etishda barcha boshqaruv funksiyalarining kelishi. Bunda o'zaro aloqa o'rnatiladi, amaldagi me'yor va me'yoriy hujjatlardan chetlanilsa ogohlantiriladi . Rag'batlantirish - bu inson omilini keng demokratiya asosida faollashtirish, uning manfaatlari yo'lida g'amxo'rlik qilishni boshqarish. Nazorat - bu boshqariluvchi sistema holatining nazorat va hisobga olish, ishni bir me'yorda ta'minlashni boshqarish. Agar boshqariluvchi obyekt o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lsa, boshqaruv funksiyalari ham faoliyat ko'rsatadi. Biroq, korxona timsolida quyidagi funksiyalarni ajratish mumkin: asosiy ishlab chiqarishni boshqarish, yordamchi ishlab chiqarishni boshqarish, mahsulot sifatini boshqarish, mehnat va ish xaqini boshqarish va boshqalar. Har bir aniq funksiya menejment funksiyasining tarkibiy qismi bo'lib, ular o'z navbatida yana bir necha qismga bo'linadi. Masalan, asosiy ishlab chiqarishni boshqarish, marketing, rejalashtirish, rag'batlantirish va boshqalarni o'z ichiga oladi, hamma funksiyalar o'zaro aloqada bo'ladi. Boshqarish funksiyalari - ko'p qirrali tushunchadir. Shu sababli ularni muhim belgilar bo'yicha turkumlarga ajratib o'rganish zaruriyati tug'iladi. Boshqaruv funksiyalarining mohiyati, klassifikatsiyasi va mazmunini o'rganish boshqaruvning butun jarayonini tartibga solib turish uchun o'ta muhimdir, chunki yuqorida ta'kidlaganimizdek, boshqaruv mazmuni jarayon sifatida uning funksiyalarida namoyon bo'ladi. G'arb menejmentining bugungi zamonaviy nazariyasi boshqarish funksiyalarini turkumlashda eng avvalo uning quyidagi asosiy (umumiy) funksiyalariga ustuvorlik berishadi: rejalashtirish, tashkil qilish, tartibga solish va muvofiqlashtirish, nazorat, rag'batlantirish (motivlashtirish). Funksiyalar boshqaruvning barcha bo'g'inlarida va hamma bosqichlarida quyidagi izchillikda amalga oshiriladi. Boshqarish dastlab rejalashtirishdan boshlanib, faoliyatni tashkil qilish, uni tartibga tushirish, muvofiqlashtirish bilan davom ettirilib, nazorat bilan tugaydi. Bu yerda rag'batlantirish barcha funksiyalar jarayonida o'z aksini topadi. Korxonada menejer faoliyatining mazmuni, uning funksional vazifalarini ko'rib chiqdik, boshqarish omillari esa quyidagilardan iborat. Har bir sohada, har bir kasbda faoliyat olib borayotganda o'sha sohaning qonun qoidalari yoki tamoyillari asosida ish olib boriladi. Rahbarlar ham menejment tamoyillari asosida ish olib boradilar. O'rnatilgan Qonun - bu davlat hokimiyati tomonidan qabul qilingan, hamma uchun majburiy bo'lgan ijtimoiy huquqiy

norma va munosabatlarni belgilovchi rasmiy qoida. Masalan, Konstitutsiya O'zbekistonning asosiy qonunidir. To'qqiz yillik majburiy ta'lim haqida qonun va boshqalar. Qonun - bu bajarilishi shart, majburiy bo'lgan, norma, qoida tusiga kirgan talab, topshiriq va shu kabilar, ya'ni jamiyatda, ijtimoiy guruh va shu kabilarda qabul qilingan odat tusiga kirgan qoida, rasm, odat. Tamoyil - mayl, moyillik, tendensiya. “Prinsip” so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, asos, dastlabki, ya'ni xatti-xarakat yoki faoliyatning asosiy qoidasi, rahbar g'oya ma'nolarini bildiradi. Prinsiplarni menejment fani va amaliyotining poydevori deyish mumkin. Qonun va tamoyillarda menejmentning ob'ekti va sub'ekti o'rtasidagi ob'ektiv, muhim, takrorlanadigan, nisbiy, turg'un, aniq muayyanlik va mohiyat bilan umumiy bog'lanish va aloqadorlik o'z ifodasini topadi. Bu umumiy bog'lanish va aloqadorliklar ma'lum shart-sharoitlarda voqealar rivojining yo'nalishi va xususiyatini belgilab beradi. Bundan ko'rinib turibdiki, menejmentning qonunqoidalari va tamoyillari faqat hamma uchun majburiy bo'lgan norma, qoida, rasm-rusum, moyilliklar orqali ta'riflanishi va ifodalanishi mumkin. Menejment tamoyillari quyidagilardan iborat: - demokratiyalash tamoyili - ommani boshqarishga keng ko'lamda jalb qilishni, kengash va maslahat bilan ishlarning bajarilishini talab qiladi. - ierarxiya tamoyili - boshqarishning pog'onaligiga asoslanadi. Bu tamoyil, bir tomonidan, markaziy, ikkinchi tomondan esa, viloyat shahar va tumanlar darajasidagi davlat hokimiyati hamda boshqaruv idoralarining vazifalarini aniq belgilanishini talab qiladi. Samarasiz boshqaruv bo'g'inlari qanchalik ko'p bo'lsa, shunchalik boshqaruv jarayoni chigallashadi. - rejalashtirish tamoyili - boshqarish bo'g'inlari o'rtasidagi taraqqiyot nisbatlarini aniqlaydi, shartnomalarning bajarilishini tashkil qiladi va nazorat qiladi. - yakkahokimlik tamoyili - boshqarish tayinlangan shaxs tomonidan bajarilib, unga boshqariladigan ob'ekt, uning mol-mulki, pul mablag'lari ishonib toshiriladi. Yakka hokimlik boshqarishda jiddiy tartib va mehnat intizomini ta'minlaydi. Bunda “Ko'plashib muhokama qilmoq kerag-u, lekin mas'uliyat yakka bir kishida bo'lmog'i kerak” degan prinsip amal qiladi.

Ilmiylik tamoyili - menejerlardan chuqur bilimni, o'z sohasi bo'yicha iqtisod, mantiq, ruhiyat, matematika, chet tili, texnologiya kabi fanlarni yaxshi bilishini talab qiladi. Shu bilan birga uning saviyali tashkilotchi, tashabbuskor g'oyalarga boy, izlanuvchan, bozor kon'yunkturasini yaxshi biladigan, tavakkal qilishdan qo'rqmaydigan mutaxassis bo'lishini talab qiladi. - qayta aloqalar tamoyili - topshiriqni berishda tushundinglarmi? deb so'rash yetarli emas. Bunday savolga javobgar shaxslardan tasdiqlovchi javobni, topshiriqni to'g'ri tushunganligini so'rash kerak. - javobgarlik tamoyili - bu tamoyil eng avvalo, boshqaruvchilarning javobgarligini nazarda tutadi. Bajaruvchanlik madaniyati past, mas'uliyatsiz rahbar korxona va xodimlarning sho'ri. Menejer uchun huquqiy javobgarlik o'ta yuqori bo'lishi kerak . Shunday qilib, boshqarish tamoyili (prinsipi) deganda boshqaruv organlari va rahbarlari faoliyatining zaminini tashkil etuvchi asosiy qonun-qoidalar tushuniladi. Boshqarish tamoyillari-bu boshqaruv amaliyotida ob'ektiv qonunlardan ongli foydalanish shakllaridandir.

Menejerlar tomonidan qabul qilinadigan qarorlar murakkabligi va javobgarlik ortishi bajariladigan ishlar turli - tumanligi ulardan vaqtni unumli taqsimlanishi talab qiladi. O'z faoliyatini rejalashtirishni bilmaydigan, faqat joriy masalalar bilan shug'ullanuvchi menejerlar faqat boshqaruv jarayonida vujudga keluvchi u yoki bu vaziyat natijalarini tahlil qilishgagina ulgurib, kelajakda qilinishi lozim bo'lgan ishlarni hal etish uchun vaqt topolmay qoladilar. Menejer faoliyati maqsadini belgilashda avvalo undan yuqoriroq boshqaruv tizimi oldida turgan vazifalardan kelib chiqishi lozim, chunki aks holda butun tizim faoliyatiga to'g'ri kelmaydigan (yoki qarama-qarshi) ish ko'rishi mumkin.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Akbarovna, N. N. (2024). GLOBALLASHUV SHAROITIDA INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISHDAGI MUAMMOLAR. *Gospodarka i Innowacje.*, *54*, 107-112.
2. Akbarovna, N. N. (2024). STRATEGIC MANAGEMENT METHODS IN AN INNOVATIVE ECONOMY. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, *1*(3), 407-412.
3. Akbarovna, N. N. (2024). MILLIY IQTISODIYOTNI TAHLIL QILISHDA QO 'LLANILADIGAN ASOSIY KO 'RSATKICHLAR. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, *1*(3), 278-283.
4. Bobojonova, M. J., & Naimova, N. A. (2024). O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KASANACHILIKNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, *1*(3), 277-282.
5. Bobojonova, M. J., & Naimova, N. (2024). QISHLOQ XO 'JALIGINI KLASTERLASHNING XORIJIY TAJRIBASI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, *1*(3), 65-71.
6. Bobojonova, M. J., & Naimova, N. A. (2024). O'ZBEKISTONDA FRILANSERLIK VA AUTSORSERLIKNING RIVOJLANISH DARAJASI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, *1*(3), 72-77.
7. Akbarovna, N. N. (2024). O 'ZBEKISTON IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA MAKROIQTISODIY DASTURLARNI ISHLAB CHIQISH VA AMALGA OSHIRUVCHI YONDASHUVLARDAN FOYDALANISH. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, *1*(3), 383-389.
8. Akbarovna, N. N. (2024). KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK IQTISODIYOTNING MUHIM SOHASI SIFATIDA. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, *1*(3), 307-313.
9. Akbarovna, N. N. (2024). DAVLAT BOSHQARUV ORGANLARI–MA'MURIY HUQUQ OBYEKTI SIFATIDA. *Gospodarka i Innowacje.*, *47*, 371-377.
10. Akbarovna, N. N. (2024). RAQAMLI IQTISODIYOT SOHALARDA VA ELEKTRON TIJORAT RIVOJLANISHIDA MAMLAKATNING IQTISODIY SALOHIYATI.

11. Akbarovna, N. N. (2024). DAVLAT SOLIQ QO ‘MITASINING AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINI RAQAMLASHTIRISH STRATEGIYASI.

12. Naimova, N. (2024). STRATEGY OF MARKETING RESEARCH. *Modern Science and Research*, *3*(5), 306-312.

13. Bobojonova, M. J., & Naimova, N. A. (2024). FRILANSERLIK-O'ZINI O'ZI BAND QILISHNING YANGI SHAKLI. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, *1*(3), 283-288.

14. Akbarovna, N. N. (2024). TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT YURITISHNING SHAKLLARI VA YO'NALISHLARI. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, *1*(3), 57-63.

15. Nargiza, N. (2023). THE ROLE OF PROPERTY RELATIONS IN SOCIETY. *Modern Science and Research*, *2*(12), 889-893.

16. Hakimovich, T. M., & Abidovna, A. S. (2025). PANDEMIYA SHAROITIDA O ‘ZBEKISTON MILLIY IQTISODIYOTIDAGI TARKIBIY O ‘ZGARISHLARNI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO ‘NALISHLARI VA ISTIQBOLDAGI IQTISODIY O ‘SISH PROGNOZLARI. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLDT*, *1*(3), 111-123.

17. Hakimovich, T. M., & Abidovna, A. S. (2025). O ‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SANOAT TARMOQLARIDAGI TARKIBIY O ‘ZGARISHLAR VA ULARNI BAHOLASH. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLDT*, *1*(3), 101-110.

18. Джураева, М. С., & Алимова, Ш. А. (2025). АНАЛИЗ ТОЧКИ БЕЗУБЫТОЧНОСТИ И МАРЖИНАЛЬНОЙ ПРИБЫЛИ. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, *1*(4), 88-94.

19. Алимова, Ш. А., & Джураева, М. С. (2025). ИНВЕСТИЦИОННЫЕ ПРОЕКТЫ: УПРАВЛЕНИЕ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, *1*(4), 81-87.

20. Алимова, Ш. А., & Тошов, М. Х. (2025). БЮДЖЕТНЫЙ ДЕФИЦИТ И ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ДОЛГ: СТРАТЕГИИ УПРАВЛЕНИЯ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, *1*(4), 142-149.

21. Алимова, Ш. А., & Тошов, М. Х. (2025). ВЛИЯНИЕ ГЛОБАЛИЗАЦИИ НА ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ СТРАН: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, *1*(5), 86-92.

22. Hakimovich, T. M., & Abidovna, A. S. (2025). O ‘ZBEKISTON EKSPORTCHI KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASH YO ‘NALISHLARI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, *1*(4), 245-254.

23. Hakimovich, T. M., & Abidovna, A. S. (2025). O ‘ZBEKISTONDA EKSPORT-IMPORT KO ‘RSATKICHLARINING TAHLILI. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, *1*(5), 151-159.

24. Hakimovich, T. M., & Abidovna, A. S. (2025). JAHON SAVDO KO ‘RSATKICHLARI ISTIQBOLI VA BUNDA O ‘ZBEKISTON EKSPORTCHI KORXONALARI UCHUN IMKONIYATLAR. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, *1*(4), 236-244.

25. Джураева, М. С., & Алимова, Ш. А. (2025). АНАЛИЗ БЕЗРАБОТИЦЫ В РАЗВИВАЮЩИХСЯ СТРАНАХ АФРИКИ И УЗБЕКИСТАНЕ. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, *1*(4), 122-128.

26. Джураева, М. С., & Алимова, Ш. А. (2025). ЭКОНОМИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ВВП СТРАН ЕВРАЗИЙСКОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО СОЮЗА (ЕАЭС) И УЗБЕКИСТАНА. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLDT*, *1*(3), 149-156.

27. Джураева, М. С., & Алимова, Ш. А. (2025). СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ УРОВНЯ ИНФЛЯЦИИ В СТРАНАХ ЕС И УЗБЕКИСТАНЕ. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, *1*(4), 206-212.

28. Abidovna, A. S., & Sadilloevna, D. M. (2024). THE IMPACT OF MANAGEMENT PRACTICES ON INNOVATION IN ENTREPRENEURSHIP. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, *1*(3), 232-237.

29. Алимова, Ш. А., & Джураева, М. С. (2025). ИННОВАЦИИ И ЦИФРОВИЗАЦИЯ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ: ПЕРСПЕКТИВЫ И ПРОБЛЕМЫ. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, *1*(4), 120-126.

30. Алимова, Ш. А., & Джураева, М. С. (2025). СТРАТЕГИЧЕСКОЕ УПРАВЛЕНИЕ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, *1*(4), 82-89.

31. Джураева, М. С., & Алимова, Ш. А. (2025). РОЛЬ ИННОВАЦИЙ В ПОВЫШЕНИИ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ: НАЦИОНАЛЬНЫЙ И МЕЖДУНАРОДНЫЙ КОНТЕКСТ. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLDT*, *1*(3), 41-49.

32. Sadilloevna, D. M., & Abidovna, A. S. (2024). THE STRATEGIC ROLE OF MANAGEMENT IN ENTREPRENEURIAL SUCCESS. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, *1*(3), 220-225.

33. Abidovna, A. S. (2024). XUSUSIY OLIY TA'LIMDA HR MENEJMENTDAN FOYDALANISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI. *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, *4*(08), 68-74.

34. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2025). TEXNOLOGIK JARAYONNING TANNARXINI HISOBLASH. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLDT*, *1*(3), 17-23.

35. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2025). MAHSULOT TANNARXINI HISOBLASH, XARAJATLARNI TAHLIL QILISH YONDASHUVLARI. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, *1*(5), 47-53.

36. Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2025). IQTISODIYOTNI RAQAMLI KO 'RSATISHDA SANOATNING O 'RNI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, *1*(4), 42-50.

37. Azimov, B. F., Shadiyev, A. X., & Qudratova, G. M. (2025). YENGIL SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION STRATEGIYALAR. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, *1*(4), 15-22.

38. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2025). TANNARXNI HISOBGA OLISH VA UNI OPTIMALLASHTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, *1*(5), 40-46.

39. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2025). KORXONALAR MAHSULOTLARI TANNARXINI ANIQLASHDA QO'LLANILADIGAN USULLAR. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, *1*(4), 54-61.

40. Raxmonqulova, N. O. (2025). TASHKILOTNING MOLIYAVIY REJASI VA UNING MUVAFFAQIYATGA TA'SIRI. *Science, education, innovation: modern tasks and prospects*, *2*(1), 8-14.

41. Raxmonqulova, N. O. (2025). HODIMLARNI RAG 'BATLANTIRISH VA MOTIVATSIYA ORQALI ISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH. *The latest pedagogical and psychological innovations in education*, *2*(1), 29-35.

42. Raxmonqulova, N. O. (2025). TASHKILOT MAQSADLARINI BELGILASH VA ULARGA ERISHISH BO 'YICHA STRATEGIK REJALASHTIRISH JARAYONLARI. *Science, education, innovation: modern tasks and prospects*, *2*(1), 22-28.

43. Hakimovich, T. M. (2025). PRIORITIES FOR DEEPENING STRUCTURAL CHANGE IN THE ECONOMY. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, *12*(01), 84-90.

44. Hakimovich, T. M. (2025). HUDUDLAR IQTISODIYOTINI JADAL RIVOJLANTIRISH BO'YICHA STRATEGIYALARNING QO'LLANILISHI. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, *1*(4), 129-136.

45. Bahodirovich, X. B. (2025). O'ZBEKISTONDA BOJXONA NAZORATI XIZMATINI TASHKIL QILISHNING HUQUQIY ASOSLARI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, *1*(4), 65-71.

46. Bahodirovich, X. B. (2025). TIJORAT BANKLARIDA MOLIYAVIY NAZORATNI TASHKIL ETISH. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLDT*, *1*(3), 10-16.

47. Label, W. (2013). *Accounting for non-accountants: The fast and easy way to learn the basics*. Sourcebooks, Inc..

48. EI, I. JAHON SAVDO KO 'RSATKICHLARI ISTIQBOLI VA BUNDA O 'ZBEKISTON EKSPORTCHI KORXONALARI UCHUN IMKONIYATLAR.

49. EI, I. (2024). O 'ZBEKISTONDA MAKROIQTISODIY KO 'RSATKICHLAR O 'ZGARISHLARINING 2022 VA 2023 YILLAR VA TARMOQLAR MIQYOSIDA TAHLILI. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, *1*(3), 44-52.

50. EI, I. (2024). YALPI ICHKI MAHSULOT TUSHUNCHASI VA UNI HISOBLASHNING ASOSIY SHARTLARI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, *1*(3), 266-274.

51. Sodiqova, N. T. (2025). WAYS TO ENHANCE COMPANY COMPETITIVENESS. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, *12*(01), 145-150.

52. Tohir o'g'li, M. T., & To'rayevna, S. N. (2024). O 'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSION SIYOSAT. *ZAMONAVIY TA'LIMDA FAN VA INNOVATSION TADQIQOTLAR JURNALI*, *2*(14), 45-53.

53. Bazarova, M. (2025). O’ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT MOLIYASI TIZIMIDAGI ISLOHOTLARNING ASOSIY YO’NALISHLARI. *Modern Science and Research*, *4*(1), 29-36.
54. Shadiyev, A. X. (2025). A MODERN APPROACH TO THE METHODOLOGY OF TEACHING ECONOMIC DISCIPLINES. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, *12*(01), 134-139.
55. Khudoynazarovich, S. A. (2022). Features of evaluating the effectiveness of activities at the Bukhara State University. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, *10*(11), 153-159.
56. Xudoynazarovich, S. A. (2024). KORXONA VA TASHKILOTLARDA PERSONALNI BOSHQARISH TIZIMI VA TAMOYILLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, *48*, 685-690.
57. Shadiyev, A. (2024). TA’LIM MENEJMENTI. TA’LIMNI BOSHQARISH USULLARI VA QARORLARI. *Modern Science and Research*, *3*(6).
58. Olimovich, D. I., & Khudoynazarovich, S. A. (2020). The cost-effectiveness of improving the quality of hotel services. *Academy*, (4 (55)), 40-42.
59. Khudoynazarovich, S. A. (2023). CREATING VALUE IN A TOURIST DESTINATION.
60. Xudoynazarovich, S. A. (2024). CHALLENGES OF HUMAN RESOURCE MANAGEMENT IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS AND THEIR SOLUTIONS. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, *11*(12), 398-402.
61. Шадиев, А. Х. (2020). Способы улучшения структуры управления в туризме. *Вопросы науки и образования*, (7 (91)), 29-31.
62. Shadiyev, A. X. (2024). PERSONNEL MANAGEMENT SYSTEM DEVELOPMENT CHARACTERISTICS. *Gospodarka i Innowacje*, *51*, 108-115.
63. Шадиев, А. Х., & Давронов, И. О. (2020). Роль развития персонала в повышении эффективности услуг и его влиянии на экономику. *Вопросы науки и образования*, (6 (90)), 15-17.
64. Xudoynazarovich, S. A. (2024). KADRLAR BOSHQARUVI XUSUSIY OTMLARDA: XUSUSIYATLARI, YONDASHUVLARI VA MUAMMOLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, *54*, 70-77.
65. Shadiyev, A. K. (2023). Stages of Development of The Digital Economy in Uzbekistan and Future Plans. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, *2*(12), 333-340.
66. Shadiyev, A. K. (2021). Development and organization catering service in hospitality. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, *11*(5), 381-387.
67. Azimov, B. F. (2024). MOLIYAVIY SEKTORDA STATISTIK KUZATISH VA UNING USULLARI. *XALQARO KONFERENSIYA VA JURNALLARNI SIFATLI INDEXLASH XIZMATI*, *1*(1), 28-31.
68. Жумаева, З. К. (2019). Современные Тенденции И Направления Развития Инвестиционной Деятельности В Регионах Республики Узбекистан. *Современные Проблемы Социально-Экономических Систем В Условиях Глобализации*, 148-152.
69. Jumayeva, Z. (2024). RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ELEKTRON TIJORATNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI. *Modern Science and Research*, *3*(6).

70. Bustonovna, J. Z. (2024). JISMONIY SHAXSLAR DAROMADLARINI SOLIQQA TORTISH MEXANIZIMINI TAKOMILASHTIRISH.

71. Bustonovna, J. Z. (2024). IQTISODIY MUAMMOLARNI HAL QILISHDA BARQARORLIKNI TA'MINLASHNING MUHIM SHARTLARI. *Miasto Przyszłości*, *55*, 1436-1440.

72. AT, I. (2024). MINTAQALARDA TADBIRKORLIK SUB'EKTLARINING INVESTITSION FAOLLIGINI OSHIRISHNING ASOSIY YO 'NALISHLARI. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, *1*(3), 319-326.

73. AT, I. (2024). IQTISODIYOTNING REAL SEKTORIGA INVESTITSIYA QILISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI TAHLILI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, *1*(3), 149-155.

74. Джураева, М. С. (2025). АВТОНОМНЫЕ И ИНТЕГРИРОВАННЫЕ МЕТОДЫ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЕТА. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, *1*(4), 135-141.

75. Jumayeva, Z. B., & Bobojonova, M. J. (2024). BARQAROR RIVOJLANISHGA O 'TISH SHAROITIDA ISHLAB CHIQARISHNI BOSHQARISH VA TASHKIL ETISH. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, *1*(3), 307-312.

76. Jumayeva, Z. B., & Bobojonova, M. J. (2024). TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI MARKETINGNI QO'LLASHNING KONSEPTUAL ASOSLARI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, *1*(3), 93-99.

77. Hakimovich, T. M., & Avazovna, R. L. (2024). IQDISODIY NOCHOR KORXONALAR TAHLILI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, *1*(3), 284-292.

78. Avazovna, R. L., & Hakimovich, T. M. (2024). MINTAQADA MEHNAT BOZORI. MEHNAT BOZORINI TARTIBGA SOLISHNING XUDUDIY ASOSLARI, AHOLI BANDLIGI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YOLLARI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, *1*(3), 307-309.